«Tasdiqlayman»
"O'zmilliybank" AJ
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Bosh boshqarma boshlig'i v.b
_____K.Kazakov

«03» iyun 2026 y

"O'zmilliybank"AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasida Xo'jayli BXO o'tkazilgan mahalla yoki mijozlar bilan tadbirlar yig'ilish

B A Y O N N O M A S I №79

Xo'jayli tuman **«03» iyun 2026 y**

Ishtirok etdilar: "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi A.Saparbaev.

Qatnashdilar: "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi Xo'jayli BXO mijozlari qatnashdilar. (4)ta

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 6 iyuldagi PF-6257-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash va "O'zmilliybank" AJ tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aholi va mijozlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligini oshirish maqsadida 2026 yil 03-iyun kuni O'zmilliybankning Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi A.Saparbaev Xo'jayli BXO mijozlari bilan "Korrupsiyaga qarshi birga kurashamiz" mavzusida uchrashuv o'tkazdi. Xo'jayli BXOda 4 nafar mijozlar bilan (Saburov Atamurat, Yuldashova Dilfuza, Alekeeva Adina va Kaliev Salamat bilan) suhbatlashildi.

Suhbat jaryonida uchrashuv ishtirokchilariga "O'zmilliybank" AJ tizimida korrupsiyani oldini olish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar haqida qisqa axborot berdi.

Bank Bosh boshqarmasi va barcha BXM va BXO binolarida o'rnatilgan monitorlar orqali korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha videoroliklar namoyish etilishi ta'minlandi, aksilkorrupsiya burchaklarida huquqiy targ'ibot materiallari (ma'ruza matnlari, slaydlar, infografikalar) joylashtirildi va mijozlarga bukletlar berildi.

Bank tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida tezkor xabar berish imkoni beruvchi aloqa kanallari, maxsus axborot portallari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar, Bankning veb-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi joriy etildi, korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari tashkil etildi:

- saytdan to'g'ridan to'g'ri xabar yuborish

- elektron pochta orqali anticor@nbu.uz

- ishonch telefoni orqali (78) 148-00-89

Uchrashuv davomida, hozirgi vaqtda "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan bir qator targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilayotganligi, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakillantirish choralarini ko'rish uchun ma'sul hisoblanadi deb ko'rsatilganligini aytib o'tdi.

Ishtirokchilar o'z navbatida muhokamaga qo'yilgan mavzuga ijobiy munosabatlarini bildirib, Davlatning bu boradagi siyosati talablariga ko'ra Bank mutassadilarining faoliyatini maqulladilar. Shu borada "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi A.Saparbaev korrupsiya jamiyatdagi eng yomon illat ekanligi, uni oldini olish va bu kabi ofatga qarshi kurashish barchaning vazifasi ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Suhbat davomida mijozlar tomonidan berilgan savollarga to'liq va batafsil javoblar berildi.

Uchrashuv yakunida "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi A.Saparbaev fuqarolarga yana bir bor Korrupsiyaga birgalikda va hamjihatlikda kurashish, bunda Bank xodimlari mijozlarga o'z lavozim majburiyatlari talablaridan kelib chiqqan holda ko'maklashishga tayyorligini bildirdi.

Yig'ilish kotibi: **A.Saparbaev**

“O‘zmilliybank” AJ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bosh boshqarmasi “Xo‘jayli” Bank xizmatlar ofisining 2026 yil 03 iyundagi №79 sonli mahalla yoki mijozlar bilan tadbirlar yig‘ilish bayoni bilan tanishtirildi:

№	Familiya, ismi va otasining ismi	Tanishganligi haqida imzo
1.	Сабуров Атамурат	
2.	Ибрагимова Гулфуза	
3.	Алексеева Адина	
4.	Калиев Сапарбай	
5.		
6.		
7.		
8.		
9.		
10.		

O‘zmilliybank” AJ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bosh boshqarmasi Xo‘jayli bank xizmatlar ofisida №79 03.06.2026 yilgi o‘tkazilgan mahalla yoki mijozlar bilan tadbirlar yig‘ilish seminar bayonnomasi.

O‘zmilliybank” AJ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bosh boshqarmasi Xo‘jayli bank xizmatlar ofisida №79 03.06.2026 yilgi o‘tkazilgan mahalla yoki mijozlar bilan tadbirlar yig‘ilish seminar bayonnomasi.